

O‘ZBEKISTON QONUNCHILIGI TAHLILI

ILMIY-TAHLILIY JURNAL
2025-YIL 3-SON

ОБЗОР ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА УЗБЕКИСТАНА

НАУЧНО-АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
2025 ГОД № 3

UZBEKISTAN LAW REVIEW

SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL
2025 ISSUE 3

VOLUME 2 / ISSUE 3 / 2025

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.2.3.

ISSN 2181-8118

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.



MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

“O‘zbekiston qonunchiligi tahlili” ilmiy-tahliliy jurnali O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2014-yil 21-iyulda 02-0074-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro‘yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko‘paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Nashr bo‘yicha mas‘ul:

O. Choriyev

Muharrirlar:

E. Mustafayev, Y. Yarmolik,
Y. Mahmudov, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, M. Sharifova,
Sh. Beknazarova, E. Sharipov

Musahhih:

M. Tursunov

Texnik muharrir:

U. Sapayev

Dizayner:

D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar,
Sayilgoh ko‘chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt:

lawreview.uz

E-mail: uzlawreview@tsul.uz

Nashriyot litsenziyasi

№ 174625, 29.11.2023-y.

Jurnal 2025-yil 26-sentabrda

bosmaxonaga topshirildi.

Qog‘oz bichimi: A4.

Shartli bosma tabog‘i: 14.

Adadi: 100. Buyurtma: № 175.

Bosmaxona litsenziyasi

29.11.2023 № 174626

TDYU bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili:

100047. Toshkent shahri,

Sayilgoh ko‘chasi, 37.

© Toshkent davlat yuridik
universiteti

TAHRIR HAY'ATI

BOSH MUHARRIR

S. Gulyamov – TDYU Kiber huquq kafedrasini mudiri, yuridik fanlar doktori, professor – bosh muharrir

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI

I. Rustambekov – O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor, yuridik fanlar doktori, professor – bosh muharrir o‘rinbosari

Sh. Xo‘jayev – TDYU intellektual mulk huquqi kafedrasini mudiri, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori – mas‘ul muharrir

O. Oqyulov – TDYU fuqarolik huquqi kafedrasini professori, yuridik fanlar doktori

I. Bekov – TDYU konstitutsiyaviy huquq kafedrasini mudiri, yuridik fanlar doktori, professor

B. Musayev – TDYU xalqaro xususiy huquq fakulteti dekani, yuridik fanlar doktori, professor

Sh. Saydullayev – TDYU ommaviy huquq fakulteti dekani, yuridik fanlar nomzodi, professor

O. Mahkamov – TDYU jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrasini dotsenti v.b., yuridik fanlar doktori

D. Habibullayev – TDYU fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi kafedrasini mudiri, yuridik fanlar doktori, professor

B. Samarxodjayev – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti professori, yuridik fanlar doktori

S. Bozorov – TDYU O‘quv-uslubiy boshqarma (Registrator ofisi) boshlig‘i, yuridik fanlar doktori, professor

Marc Bungenberg – Saarlend universiteti Yevropa instituti direktori, yuridik fanlar doktori

Samet Tatar – Turkiyaning Anqara Yildirim Boyazid universiteti professori, yuridik fanlar doktori

Alper Ener – Turkiyaning Anqara Haci Bayram universiteti dotsenti, Energetika nizolari arbitraj markazi bosh-kotibi o‘rinbosari, yuridik fanlar doktori

Jamsheed Peeroo – Sarbonna Universiteti professori, Stone 36 yuridik firmasi advokati, yuridik fanlar doktori

O. Narziyev – TDYU xalqaro xususiy huquq kafedrasini professori, yuridik fanlar doktori

O. Xazratqulov – TDYU xalqaro xususiy huquq kafedrasini mudiri, yuridik fanlar nomzodi, professor

V. Ergashev – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti direktor o‘rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

D. Suyunova – TDYU jinoyat-protsessual huquqi kafedrasini professori, yuridik fanlar doktori

Sh.Joldasova – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti bosh ilmiy xodimi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-аналитический журнал «Обзор законодательства Узбекистана» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 21 июля 2014 года с удостоверением № 02-0074.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Ответственный за выпуск:
О. Чориев

Редакторы:

Е. Ярмолик, Й. Махмудов,
Э. Мустафаев, К. Абдувалиева,
Ф. Мухаммадиева, М. Шарифова,
Ш. Бекназарова, Э. Шарипов

Корректор:

М. Турсунов

Технический редактор:

У. Сапаев

Дизайнер:

Д. Ражапов

Адрес редакции:

100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: lawreview.uz

E-mail: uzlawreview@tsul.uz

Издательская лицензия

от 29.11.2023 № 174625.

Журнал передан в типографию
26.09.2025.

Формат бумаги: А4.

Усл. п. л. 14. Тираж: 100 экз.

Номер заказа: 175.

Лицензия типографии

от 29.11.2023. № 174626

Отпечатано в типографии
Ташкентского государственного
юридического университета.
100047, г. Ташкент, ул. Сайилгох, дом 37.

© Ташкентский государственный
юридический университет

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

С. Гулямов – доктор юридических наук, профессор, заведующий кафедрой киберправа Ташкентского государственного юридического университета – главный редактор

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ

И. Рустамбеков – доктор юридических наук, профессор, проректор по учебной работе Ташкентского государственного юридического университета – заместитель главного редактора

Ш. Хужаев – доктор философии (PhD) по юридическим наукам, заведующий кафедрой права интеллектуальной собственности Ташкентского государственного юридического университета – ответственный редактор

О. Окюлов – доктор юридических наук, профессор кафедры гражданского права Ташкентского государственного юридического университета

И. Беков – доктор юридических наук, профессор, заведующий кафедрой конституционного права Ташкентского государственного юридического университета

Б. Мусаев – доктор юридических наук, профессор, декан факультета международного частного права Ташкентского государственного юридического университета

Ш. Сайдуллаев – кандидат юридических наук, профессор, декан факультета публичного права Ташкентского государственного юридического университета

О. Махкамов – доктор юридических наук, и. о. доцента кафедры уголовного права, криминологии и противодействия коррупции Ташкентского государственного юридического университета

Д. Хабибуллаев – доктор юридических наук, профессор, заведующий кафедрой гражданского процессуального и экономического процессуального права Ташкентского государственного юридического университета

Б. Самарходжаев – доктор юридических наук, профессор Университета мировой экономики и дипломатии

С. Бозоров – доктор юридических наук, профессор, начальник управления учебно-методической работы (Регистратор-офис) Ташкентского государственного юридического университета

М. Бунгенберг – доктор права, директор Европейского института Саарского университета (Германия)

С. Татар – доктор права, профессор Анкарского университета Йылдырым Беazit (Турция)

А. Энер – доктор права, доцент Анкарского университета Хаджи Байрам, заместитель генерального секретаря Арбитражного центра по энергетическим спорам (Турция)

Дж. Пезру – доктор права, профессор Сорбоннского университета, адвокат юридической фирмы Stone 36 (Франция)

О. Нарзиев – доктор юридических наук, профессор кафедры международного частного права Ташкентского государственного юридического университета

О. Хазраткулов – кандидат юридических наук, профессор, заведующий кафедрой международного частного права Ташкентского государственного юридического университета

В. Эргашев – доктор юридических наук, профессор, заместитель директора Института законодательства и правовой политики при Президенте Республики Узбекистан

Д. Суюнова – доктор юридических наук, профессор кафедры уголовно-процессуального права Ташкентского государственного юридического университета

Ш. Жолдасова – доктор философии (PhD) по юридическим наукам, главный научный сотрудник Института проблем законодательства и парламентских исследований при Олий Мажлисе Республики Узбекистан

**FOUNDER: TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

"Uzbekistan law review" legal scientific and analytical journal was registered by Press and Information Agency of Uzbekistan on July 21, 2014, with certificate number 02-0074.

The journal is included in the list of journals of the Supreme Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan. Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of materials of the journal are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Publication Officer:

O. Choriev

Editors:

Y. Yarmolik, Y. Makhmudov,
E. Mustafae, K. Abduvalieva,
F. Mukhammadieva, M. Sharifova,
Sh. Beknazarova, E. Sharipov

Proofreader:

M. Tursunov

Technical editor:

U. Sapaev

Designer:

D. Rajapov

Publishing department address:

100047. Tashkent city,
Sayilgoh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: lawreview.uz

E-mail: uzlawreview@tsul.uz

Publishing license

№ 174625, 29.11.2023.

The journal is submitted to the Printing house on 26.09.2025.

Paper size: A4.

Cond.p.f: 14.

Units: 100. Order: № 175.

Printing house license

№ 174626, 29.11.2023.

Published in the Printing house of
Tashkent State University of Law.
100047. Tashkent city, Sayilgoh street, 37.

© Tashkent State University of Law

EDITORIAL BOARD
EDITOR-IN-CHIEF

S. Gulyamov – Head of the Department of Cyberlaw of TSUL, Doctor of Law, Professor
- Editor-in-Chief

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD

I. Rustambekov – Deputy Rector for Academic Affairs, Doctor of Law, Professor -
Deputy Editor-in-Chief

Sh. Xujayev – Head of the Department of Intellectual Property Law of TSUL, Doctor
of Philosophy (PhD) in Law - Executive Editor

O. Oqyulov – Professor of the Department of Civil Law of TSUL, Doctor of Law

I. Bekov – Head of the Department of Constitutional Law of TSUL, Doctor of Law,
Professor

B. Musaev – Dean of the Faculty of Private International Law of TSUL, Doctor of
Law, Professor

Sh. Saydullaev – Dean of the Faculty of Public Law of TSUL, Candidate of Legal
Sciences, Professor

O. Mahkamov – Acting Associate Professor of the Department of Criminal Law,
Criminology and Anti-Corruption of TSUL, Doctor of Law

D. Habibullaev – Head of the Department of Civil Procedural and Economic
Procedural Law of TSUL, Doctor of Law, Professor

B. Samarkhodjaev – Professor of the University of World Economy and Diplomacy,
Doctor of Law

S. Bozorov – Head of the Educational and Methodological Department (Registration
Office) of TSUL, Doctor of Law, Professor

Marc Bungenberg – Saarland universiteti Yevropa instituti direktori, yuridik
fanlar doktori Director of the European Institute of Saarland University, Doctor of Law

Samet Tatar – Professor of Ankara Yıldırım Bayezid University, Turkey, Doctor of
Law

Alper Ener – Associate Professor of Ankara Haci Bayram University, Turkey, Deputy
Secretary General of the Center for Arbitration of Energy Disputes, Doctor of Law

Jamsheed Peeroo – Professor of the University of Sarbonne, lawyer of the law firm
Stone 36, Doctor of Law

O. Narziev – Professor of the Department of Private International Law of TSUL,
Doctor of Law

O. Khazratkulov – Head of the Department of Private International Law of TSUL,
Candidate of Legal Sciences, Professor

V. Ergashev – Deputy Director of the Institute of Legislation and Legal Policy under
the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor

D. Suyunova – Professor of the Department of Criminal Procedure Law of TSUL,
Doctor of Law

Sh. Joldasova – Chief Research Fellow of the Institute of Legislation Problems and
Parliamentary Research under the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, Doctor of
Philosophy (PhD) in Law

MUNDARIJA

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 8 **NAZAROV SHAVKAT NAZAROVICH**
Fuqarolik jamiyati va davlat: konstitutsiyaviy-huquqiy hamkorlik asoslari
- 18 **NARIMANOV BEKZOD ABDUVALIYEVICH**
Nodavlat notijorat tashkilotlari ramzlari bilan bog'liq ma'muriy tartib-taomillarni takomillashtirish

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 25 **ABDUVALIYEV BAHODIR ABDULXAYEVICH**
Aqlii shaharlar ekotizimida subyektlar tarkibi va shartnoma munosabatlarining o'ziga xosligi:
O'zbekiston Respublikasi misolida huquqiy tahlil

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI. IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI. HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA

- 35 **BARLIBAYEVA DILNOZA ABDUKAXAROVNA**
Sudgacha adolat va huquqiy himoya: O'zbekistonda fuqarolar huquqlarini himoya qilishning yangi mexanizmi

12.00.05 – MEHNAT HUQUQI. IJTIMOIIY TA'MINOT HUQUQI

- 46 **RAXIMOVA KAMOLA XOSHIMJANOVNA**
"Work-life balance" konsepsiyasining nazariy asoslari va O'zbekiston sharoitida joriy etish mexanizmlari

12.00.06 – TABIIY RESURLAR HUQUQI. AGRAR HUQUQ. EKOLOGIK HUQUQ

- 55 **BAYTUROVA AIDA NABIYEVNA**
O'zbekistonda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish va ular faoliyatining huquqiy jihatlar
- 65 **OTAUBAYEVA AYGUL BAXRAMOVNA**
Ekologiya sohasidagi jinoyatlar va ma'muriy huquqbuzarliklarning chegarasini aniqlash: Qozog'iston va O'zbekiston qonunchiligining qiyosiy-huquqiy tahlili
- 74 **KALDARBEOV ASILJON OSPANOVICH**
Qozog'iston va O'zbekistonda o'rmon fondiga mulk huquqi bilan bog'liq dolzarb muammolar

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 84 **OCHILOV SAMARIDDIN KAMOLIDDINOVICH**
Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutining shakllanishiga oid ilmiy-nazariy va huquqiy qarashlar
- 98 **NURMANOV XOLBEK RAHMATILLA O'G'LI**
Kiberjinoyatchilik o'sishi ortidan kiberjinoyatchi portretiga nazar

12.00.12 – KORRUPSIYA MUAMMOLARI

- 109 **MIRZAYEVA MOHINA SROJIDDINOVA**
"Avtomobil yo'llari to'g'risida"gi qonunning yangi tahriri loyihasida shaffoflik va korrupsiyaga qarshi kafolatlarining huquqiy tahlili

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.02 – КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО. ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО

- 8 **НАЗАРОВ ШАВКАТ НАЗАРОВИЧ**
Гражданское общество и государство: основы конституционно-правового взаимодействия
- 18 **НАРИМАНОВ БЕКЗОД АБДУВАЛИЕВИЧ**
Совершенствование административных процедур, связанных с символикой негосударственных некоммерческих организаций

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

- 25 **АБДУВАЛИЕВ БАХОДИР АБДУЛХАЕВИЧ**
Специфика субъектного состава и договорных отношений в экосистеме умных городов:
правовой анализ на примере Республики Узбекистан

12.00.04 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. АРБИТРАЖ И МЕДИАЦИЯ

- 35 **БАРЛИБАЕВА ДИЛНОЗА АБДУКАХАРОВНА**
Досудебная справедливость и правовой щит: новый механизм защиты прав граждан в Узбекистане

12.00.05 – ТРУДОВОЕ ПРАВО. ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ

- 46 **РАХИМОВА КАМОЛА ХОШИМЖАНОВНА**
Теоретические основы концепции work-life balance и механизмы её внедрения в условиях Узбекистана

12.00.06 – ПРИРОДОРЕСУРСНОЕ ПРАВО. АГРАРНОЕ ПРАВО. ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ПРАВО

- 55 **БАЙТУРОВА АИДА НАБИЕВНА**
Правовые аспекты создания и функционирования охраняемых природных территорий в Узбекистане
- 65 **ОТАУБАЕВА АЙГУЛЬ БАХРАМОВНА**
Разграничение преступлений и административных правонарушений в сфере экологии:
сравнительно-правовой анализ законодательства Казахстана и Узбекистана
- 74 **КАЛДАРБЕКОВ АСЫЛЖАН ОСПАНОВИЧ**
Актуальные проблемы права собственности на лесной фонд в Казахстане и Узбекистане

12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

- 84 **ОЧИЛОВ САМАРИДДИН КАМОЛИДДИНОВИЧ**
Научно-теоретические и правовые взгляды на формирование института условно-досрочного освобождения от наказания
- 98 **НУРМАНОВ ХОЛБЕК РАХМАТИЛЛА УГЛИ**
Профиль киберпреступника сквозь призму роста киберпреступности

12.00.12 – ПРОБЛЕМЫ КОРРУПЦИИ

- 109 **МИРЗАЕВА МОХИНА СРОЖИДДИНОВНА**
Правовой анализ гарантий прозрачности и антикоррупционных мер в проекте закона «Об автомобильных дорогах» в новой редакции

CONTENTS

12.00.02 – CONSTITUTIONAL LAW. ADMINISTRATIVE LAW. FINANCIAL AND CUSTOMS LAW

- 8 **NAZAROV SHAVKAT NAZAROVICH**
Civil society and the state: foundations of constitutional and legal cooperation
- 18 **NARIMANOV BEKZOD ABDUVALIEVICH**
Improvement of administrative procedures related to the symbols of non-governmental non-profit organizations

12.00.03 – CIVIL LAW. BUSINESS LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

- 25 **ABDUVALIEV BAHODIR ABDULKHAYEVICH**
Specifics of subject composition and contractual relations in the ecosystem of smart cities: legal analysis on the example of the Republic of Uzbekistan

12.00.04 – CIVIL PROCEDURAL LAW. ECONOMIC PROCEDURAL LAW. ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

- 35 **BARLIBAEVA DILNOZA ABDUKAKHAROVNA**
Pre-trial justice and legal shield: a new mechanism for protecting the rights of citizens in Uzbekistan

12.00.05 – LABOR LAW. SOCIAL SECURITY LAW

- 46 **RAKHIMOVA KAMOLA KHOSHIMJANOVNA**
Theoretical foundations of “work-life balance” concept and implementation mechanisms in Uzbekistan context

12.00.06 – THE LAW OF NATURAL RESOURCES. AGRARIAN LAW. ENVIRONMENTAL LAW

- 55 **BAYTUROVA AIDA NABIYEVNA**
Legal aspects of the establishment and functioning of protected natural areas in Uzbekistan
- 65 **OTABAYEVA AIGUL BAKHRAMOVNA**
Distinction between environmental crimes and administrative offenses: a comparative legal analysis of the legislation of Kazakhstan and Uzbekistan
- 74 **KALDARBEOV ASILJAN OSPANOVICH**
Current issues of ownership of forest fund in Kazakhstan and Uzbekistan

12.00.08 – CRIMINAL LAW. CRIMINAL-EXECUTIVE LAW

- 84 **OCHILOV SAMARIDDIN KAMOLIDDINOVICH**
The scientific-theoretical and legal views on the formation of the institution of parole
- 98 **NURMANOV KHOLBEK RAHMATILLA UGLI**
A look at the cybercriminal profile in the event of the growth of cybercrime

12.00.12 – CORRUPTION PROBLEMS

- 109 **MIRZAEVA MOHINA SROJIDDINOVA**
Legal analysis of transparency and anti-corruption safeguards in the new edition of the law “On Automobile Roads”

Kelib tushgan / Получено / Received: 18.08.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 15.09.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 26.09.2025

DOI: 10.51788/tsul.uzlawrev.2.3./HWLS2457

UDC: 342.9(045)(575.1)

NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI RAMZLARI BILAN BOG'LIQ MA'MURIY TARTIB-TAOMILLARNI TAKOMILLASHTIRISH

Narimanov Bekzod Abduvaliyevich,
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari
bo'yicha vakili (ombudsman) o'rinbosari,
yuridik fanlar doktori, dotsent
ORCID: 0000-0002-4703-3358
e-mail: bekozdnarimanov84@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) ramzlari: gerb, bayroq, logotip, emblema va boshqa identifikatsiya belgilarining yaratilishi, ularning ma'nosi va ijtimoiy ahamiyati, shuningdek, mazkur ramzlarni qonunchilik asosida ro'yxatdan o'tkazish va himoya qilishga doir ma'muriy tartib-taomillar tahlil qilindi. NNT ramzlari tashkilotning brendini shakllantirish, uning ijtimoiy obro'-e'tiborini oshirish hamda maqsad va vazifalarini vizual tarzda ifodalashda muhim o'rin tutishi ilmiy asosda yoritildi. Amaldagi milliy qonunchilikda ramzlarni rasmiy ro'yxatga olish, ulardan foydalanish va ularni himoya qilish jarayonida uchraydigan huquqiy bo'shliqlar, idoralararo muvofiqlashtirishdagi kamchiliklar va ma'lumotlar almashinuvidagi sustlik kabi muammolar tahlil qilindi. Shuningdek, ilg'or xorijiy tajribaga tayangan holda NNT ramzlaridan noqonuniy foydalanish holatlariga qarshi samarali ma'muriy javobgarlik choralari kuchaytirish, intellektual mulk huquqlarini kompleks himoya qilish va ushbu jarayonlarni raqamlashtirish orqali tezkor, shaffof hamda korrupsiyadan xoli mexanizmlarni joriy etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari NNTlarning huquqiy maqomini mustahkamlash, ularning ijtimoiy nufuzini oshirish, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish hamda davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ishonchni yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: nodavlat notijorat tashkilotlari, ramzlar, gerb, bayroq, logotip, ma'muriy tartib-taomillar, huquqiy himoya, intellektual mulk

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ПРОЦЕДУР, СВЯЗАННЫХ С СИМВОЛИКОЙ НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ НЕКОММЕРЧЕСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ

Нариманов Бекзод Абдувалиевич,
доктор юридических наук, доцент,
заместитель Уполномоченного
по правам человека (омбудсмена)
Олий Мажлиси Республики Узбекистан

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы, связанные с символикой негосударственных некоммерческих организаций – герб, флаг, логотип, эмблема и иные идентификационные знаки, их создания, содержания и социальной значимости, а также

анализируются административные процедуры, связанные с их регистрацией и правовой защитой. Научно обосновано, что символика негосударственных некоммерческих организаций играет важную роль в формировании бренда организации, укреплении её общественного авторитета и визуальном выражении целей и задач. В национальном законодательстве выявлены пробелы, касающиеся официальной регистрации символов, порядка их использования и защиты, а также недостатки в межведомственной координации и слабость обмена информацией. На основе передового зарубежного опыта разработаны предложения по усилению административной ответственности за незаконное использование символики негосударственных некоммерческих организаций, комплексной защите прав интеллектуальной собственности, а также по внедрению цифровых технологий, обеспечивающих оперативные, прозрачные и свободные от коррупции процессуальные механизмы. Результаты исследования направлены на укрепление правового статуса негосударственных некоммерческих организаций, повышение их социального авторитета, развитие институтов гражданского общества и дальнейшее усиление взаимного доверия между государством и обществом.

Ключевые слова: неправительственные некоммерческие организации, символы, герб, флаг, логотип, административные процедуры, правовая защита, интеллектуальная собственность

IMPROVEMENT OF ADMINISTRATIVE PROCEDURES RELATED TO THE SYMBOLS OF NON-GOVERNMENTAL NON-PROFIT ORGANIZATIONS

Narimanov Bekzod Abduvalievich,
Deputy Commissioner of the Oliy Majlis
of the Republic of Uzbekistan for Human Rights,
Doctor of Science in Law, Associate Professor

Abstract. This article analyzes the creation of symbols of non-governmental non-commercial organizations (NGOs): coat of arms, flag, logo, emblem and other identification marks, their meaning and social significance, as well as administrative procedures for the registration and protection of these symbols on the basis of legislation. It is scientifically substantiated that NGO symbols play an important role in shaping the organization's brand, increasing its social prestige, and visually representing its goals and objectives. Problems such as legal gaps in the process of official registration, use, and protection of symbols in the current national legislation, shortcomings in interdepartmental coordination, and inadequate data exchange were analyzed. Also, based on advanced foreign experience, proposals and recommendations were developed to strengthen effective administrative liability measures against cases of illegal use of NGO symbols, to introduce prompt, transparent, and corruption-free mechanisms through comprehensive protection of intellectual property rights and digitalization of these processes. The research results will serve to strengthen the legal status of NGOs, increase their social prestige, develop civil society institutions, and further strengthen mutual trust between the state and society.

Keywords: non-governmental non-profit organizations, symbols, coat of arms, flag, logo, administrative procedures, legal protection, intellectual property

Kirish

Nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) zamonaviy fuqarolik jamiyatining muhim institutlaridan biri bo'lib, ularning samarali faoliyat yuritishi ko'p jihatdan davlat tomonidan yaratilgan huquqiy, tashkiliy va institutsional sharoitlarga bog'liq. Shunday sharoitlardan biri sifatida NNT ramzlarini (bayroq, emblema, vimpel va boshqa belgilar) ro'yxatdan o'tkazish

bilan bog'liq davlat xizmatlari va ma'muriy tartib-taomillar alohida o'rin tutadi. Ushbu jarayonlar nafaqat NNTning tashqi identifikatsiyasi va jamoatchilik oldidagi tanqililigini oshirishga xizmat qiladi, balki ularning huquqiy maqomini mustahkamlash hamda boshqa subyektlar bilan munosabatlarida ishonchlilik darajasini belgilashda ham muhim rol o'ynaydi.

Davlat xizmatlari va ma'muriy tartib-taomillarni ilmiy-nazariy o'rganish bir necha omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar ramzlarni ro'yxatdan o'tkazish tartibini belgilab bergan bo'lsa-da, ularni qo'llash amaliyotida ayrim kolliziyalar, takroriy talablar yoki hujjatlar muvofiqligining yetarli emasligi kabi masalalar uchraydi. Ikkinchidan, ushbu tartib-taomillarning samaradorligi va shaffofligi davlat boshqaruvi tizimida byurokratik to'siqlarni kamaytirish, fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash va ochiq davlat xizmatlari tizimini shakllantirish bilan chambarchas bog'liq. Uchinchidan, xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish orqali milliy qonunchilikni takomillashtirish imkoniyati yuzaga keladi, bu esa NNTlar faoliyatining barqaror va samarali rivojlanishiga zamin yaratadi.

Shuningdek, NNT ramzlari bilan bog'liq davlat xizmatlarini nazariy jihatdan tadqiq etish ularning huquqiy tabiati, maqsadi va funksiyalarini yanada chuqur anglash imkonini beradi. Bu boradagi ilmiy tahlillar ramzlarni ro'yxatdan o'tkazish mexanizmini soddalashtirish, ma'lumotlar almashinuvi tizimini avtomatlashtirish va barcha bosqichlarda elektron davlat xizmatlarini keng joriy etish bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Natijada NNTlar o'z ramzlaridan to'laqonli foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa ularning ichki boshqaruvi, xalqaro hamkorligi va jamoatchilik bilan aloqalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

A.S. Ryabchikovaning fikricha, ilmiy nuqtayi nazardan nodavlat notijorat tashkilotlarining individualizatsiyasi masalasi ularning jamiyatdagi mavqeyi va samarali faoliyati uchun strategik ahamiyatga ega. Simvolika, emblema, madhiya va boshqa vizual hamda audiovizual vositalar NNTning huquqiy va ijtimoiy maqomini mustahkamlash, ularning maqsad va vazifalarini aniq ifodalash, shu bilan birga, jamoatchilikning ishonchini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bu vositalar, shuningdek, tashkilotning brend sifatida tanilishi, uni boshqa tashkilotlardan farq qilish va manfaatdor tomonlar bilan kommunikatsiya samaradorligini ta'minlaydi [1].

Ushbu tadqiqotda nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) ramzlari bilan bog'liq ma'muriy tartib-taomillarni takomillashtirish masalasi ilmiy-huquqiy yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo'llandi:

Normativ-huquqiy tahlil usuli – NNT ramzlariga oid milliy qonunchilik, ma'muriy tartib-taomillarni belgilovchi normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, intellektual mulk va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatiga oid me'yorlar tizimli ravishda o'rganildi va ularning amaliyotdagi qo'llanish samaradorligi baholandi.

Qiyosiy-huquqiy tahlil – ilg'or xorijiy mamlakatlar, xususan, Yevropa Ittifoqi davlatlari, AQSh va Osiyo mintaqasidagi davlatlarda NNT ramzlarini ro'yxatdan o'tkazish, huquqiy himoya qilish va ularning noqonuniy foydalanilishiga qarshi kurashish tajribalari o'rganilib, ularning afzallik va kamchiliklari tahlil qilindi.

Tizimli yondashuv – NNT ramzlari bilan bog'liq tartib-taomillarni davlat boshqaruvi organlari, intellektual mulk idoralari, adliya tizimi hamda NNTlarning o'zaro hamkorligi doirasida yagona tizim sifatida o'rganish orqali takomillashtirish yo'nalishlari belgilandi.

Asosiy qism

Fikrimizcha, NNTlarning individualizatsiyasi nafaqat ularning tanilishi yoki brendini shakllantirish vositasi, balki ularning ijtimoiy missiyasi va qiymatlarini keng ommaga

yetkazishdagi asosiy strategik resursdir. Aynan shu yo'nalishdagi ishlanmalar – logotipdan tortib veb-sayt dizaynigacha – tashkilot faoliyatining shaffofligi, jamoatchilik bilan ochiq muloqot olib borishi va ijtimoiy mas'uliyatli imij yaratishi uchun kuchli platforma vazifasini bajaradi. Shu bois NNTlar individualizatsiya vositalarini faqat estetik yoki marketing maqsadida emas, balki o'z huquqiy maqomi va ijtimoiy ta'sirini kuchaytirish yo'lida tizimli ravishda qo'llashi zarur.

Mashhur amerikalik sotsiolog Piter Druker uchta sektor (davlat, biznes, jamiyat) o'rtasidagi rollar farqini belgilab, nodavlat notijorat tashkilotlarining o'ziga xos missiyasini quyidagicha ifoda etgan: "Davlatning vazifasi – qoidalar ishlab chiqish va ularni qonun kuchida joriy etish, biznesning vazifasi – pul ishlash. Ijtimoiy sektor tashkilotlarining vazifasi – insonning sog'lig'i va farovonligiga ko'maklashish... Bu tashkilotlar yana bir ahamiyatga ega maqsadga xizmat qiladi. Ular fuqarolik mas'uliyati tuyg'usini uyg'otadi. Biz fuqaro sifatida qila oladigan ishimiz – faqat bir necha yilda bir marta ovoz berish va muntazam ravishda soliq to'lash. Ijtimoiy sektor tashkilotlari faoliyatida ishtirok etish orqali bu holatga muayyan o'zgartishlar kiritish mumkin" [2].

Qo'shimcha sifatida aytish mumkinki, nodavlat notijorat tashkilotlarining asosiy missiyasi inson farovonligiga xizmat qilish, fuqarolik mas'uliyatini uyg'otishdir. Ushbu missiya tashkilotning ramzlarida ham o'z ifodasini topishi kerak. Logotip va emblemalar NNTning maqsad va qadriyatlarini ifoda etib, uning jamiytdagi o'rni va mas'uliyati haqida aniq signal beradi. Masalan, ramzlarda birlik, ochiqlik, insonparvarlik va hamkorlikka doir obrazlar aks etsa, bu faqat estetik belgilar emas, balki tashkilotning ijtimoiy va ma'naviy yo'nalishini ommaga yetkazuvchi "vizual manifest" sifatida xizmat qiladi. Demak, NNT ramzlari faqat grafik ishlanma emas, balki uning ijtimoiy missiyasining ko'rinishi va jamiyat bilan muloqotining ramziy tilidir. Nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatini olib borishda hamda davlat organlari, tijorat va notijorat tashkilotlari, turli qatlamdagi jismoniy shaxslar bilan munosabatlarga kirishishda ularning taniqliligi va ramz muhim ahamiyatga ega. Shu sababli xorijiy davlatlarda va respublikamizda nodavlat notijorat tashkilotlari o'z ramzlariga ega bo'lishga harakat qilishadi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, davlat ro'yxatidan o'tkazilgan NNT ramzlari soni quyidagicha:

2020-yilda – 36 ta;

2021-yilda – 50 ta;

2022-yilda – 31 ta [3].

O'tkazilgan so'rovga ko'ra, "O'zbekistondagi (sizning viloyat/tuman yoki shahar) nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati haqida asosan qaysi manbalardan ma'lumot olasiz", deb so'ralganda *do'stlar, qarindoshlar va ishdagi hamkasblardan* degan variantga 12 foiz; *televideniye, radio va matbuotdan* variantiga 27 foiz; *internet, ijtimoiy tarmoqlardan* variantiga 54 foiz; *jamoat birlashmalari ishtirokchilari (a'zolari)* dan variantiga 3 foiz; *tashqi reklamadan* variantiga 2 foiz; *tarqatma materiallardan (bukletlar, varaqalar)* variantiga 2 foiz deb javob bergan [4–8].

"Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonunning 19-moddasiga ko'ra, nodavlat notijorat tashkiloti bayroq, emblema, vimpel va boshqa ramziy belgilarga ega bo'lishi mumkin. Nodavlat notijorat tashkilotining ramziy belgilari davlat ramziy belgilariga o'xshamasligi kerak.

Nodavlat notijorat tashkilotining ramziy belgilari ustavga muvofiq, uning rahbar organi tomonidan tasdiqlanadi hamda davlat ro'yxatidan o'tkazilishi kerak. Biroq qonun hujjatlarida bayroq, emblema, vimpellarga alohida ega bo'lish tartibi nazarda tutilmagan. Qonun

hujjatlarida nodavlat notijorat tashkilotining faqat ramzini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi mavjud.

Nodavlat notijorat tashkilotlarining ramzlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha munosabatlar Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 10-martdagi 57-son qarori bilan tasdiqlangan Nodavlat notijorat tashkilotlarining ramzlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom bilan tartibga solinadi. Mazkur nizomning 4-bandiga ko'ra, bayroqlar va vimpellarni ko'tarish, emblemalarni va boshqa ramzlarni o'rnatish, shuningdek, ulardan foydalanish tartibi tegishli nodavlat notijorat tashkiloti tomonidan mazkur nodavlat notijorat tashkiloti ramzi to'g'risidagi nizomlarda belgilanadi.

Bundan ko'rishimiz mumkinki, bayroq, emblema, vimpellar nodavlat notijorat tashkilotining ramzidan alohida bo'lgan tushuncha emas, shundan kelib chiqib, "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonunning 19-moddasida bayroq, emblema, vimpellarni ramzdan alohida va undan boshqa tushuncha sifatida qayd qilish zarurati mavjud emas. Shunga ko'ra, qonun hujjatlariga quyidagi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish taklif qilinadi:

birinchi, atamalarni bir xilda qo'llash maqsadida "ramziy belgilar" so'zini "ramz" so'zi bilan almashtirish;

ikkinchi, "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonunning 19-moddasidagi "Nodavlat notijorat tashkiloti bayroq, emblema, vimpel va boshqa ramziy belgilarga ega bo'lishi mumkin" jumlasini "Nodavlat notijorat tashkiloti o'z ramziga ega bo'lishi mumkin" jumlasiga almashtirish taklif qilinadi.

Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 10-martdagi 57-son qarori bilan tasdiqlangan Nodavlat notijorat tashkilotlarining ramzlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomning 1-bandida ushbu nizom nodavlat notijorat tashkilotlarining, shu jumladan, xalqaro va xorijiy nodavlat notijorat tashkilotlarining vakolatxonalari va filiallari ramzlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va qayta ro'yxatdan o'tkazish tartibini belgilashi qayd qilingan. Shuningdek, ushbu nizomning 2-bandiga muvofiq, uning amal qilishi mazkur nizomning 1-bandida nazarda tutilmagan notijorat tashkilotlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish adliya organlari tomonidan amalga oshirilgan hollarda bunday notijorat tashkilotlari ramzlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishga ham tatbiq etiladi.

So'rovlar natijasiga ko'ra, ushbu nizomga asosan nodavlat notijorat tashkiloti sifatida davlat reyestriga olinmagan, biroq adliya organlari tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan notijorat tashkilotlari ramzlari davlat ro'yxatdan o'tkazilmagan [10–14]. Bunga advokatlik tuzilmalari hamda Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 22-martdagi 153-son qarori bilan tasdiqlangan Yuridik shaxslar birlashmalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish haqidagi nizomga asosan ro'yxatdan o'tkazilgan yuridik shaxslar birlashmalarini misol sifatida keltirish mumkin. Ya'ni mazkur notijorat tashkilotlari ramzlari yuqoridagi nizom talabiga asosan, adliya organlaridan nodavlat notijorat tashkilotlarining ramzlari sifatida davlat ro'yxatidan o'tishi lozim bo'lsa-da, amaliyotda advokatlik tuzilmalari va yuridik shaxslar birlashmalari o'zlarining alohida belgilarini nodavlat notijorat tashkilotlarining ramzlari sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazmasdan ishlatib kelmoqdalar.

Xulosa

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi taklif va xulosalarni ilgari surish mumkin:

birinchidan, nodavlat notijorat tashkilotlarining ramzlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha murojaatlar uzoq muddat, ya'ni bir oy davomida ko'rib chiqiladi. Nodavlat notijorat tashkilotlarining ramzlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha murojaatlarni ko'rib chiqish muddatini 15 kunga kamaytirish taklif qilinadi;

ikkinchidan, nodavlat notijorat tashkilotlarining ramzlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha murojaatlarga ilova qilinadigan hujjatlar turlarini birlashtirish va ayrimlarini bekor qilish lozim. Masalan, nodavlat notijorat tashkilotlarining ramzlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha murojaatlarga tashkilotning rahbar organi tomonidan tasdiqlangan ramzning nizomi, ikki nusxada ramzning namunasi va tavsifi ilova qilinishi lozim. Bizningcha, ushbu hujjatlarni birlashtirish va nodavlat notijorat tashkiloti ramzining nizomida uning namunasi va tavsifini aks ettirish orqali alohida tartibda ikki nusxada ramzning namunasi va tavsifi ilova qilinishi tartibini bekor qilish maqsadga muvofiq;

uchinchidan, nodavlat notijorat tashkilotlarining ramzlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishni to'liq elektron tizimga o'tkazish, tegishli elektron bazalardan NNT bo'yicha ma'lumotlarni ro'yxatga oluvchi organ tomonidan avtomatik shaklda bevosita olish hamda shu orqali nodavlat notijorat tashkilotlarining ramzlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi murojaatlarga NNT davlat ro'yxatidan o'tkazilgani to'g'risidagi guvohnomaning nusxasini ilova qilish bo'yicha normani bekor qilish taklif qilinadi.

NNTlar ramzlariga qo'yilgan yagona talablarni ishlab chiqish va uni hal qilishning umumiy qoidalari sifatida quyidagilarni belgilash taklif qilinadi:

"Nodavlat notijorat tashkilotining ramzi bo'yicha umumiy qoidalar

Nodavlat notijorat tashkiloti o'z ramziga ega bo'lishi mumkin. Nodavlat notijorat tashkilotining ramzi davlat ramzlariga o'xshamasligi kerak.

Nodavlat notijorat tashkilotining ramzi ustavda nazarda tutilgan maqsadlardan kelib chiqib, uning vakolatli rahbar organi tomonidan tasdiqlanadi hamda davlat ro'yxatidan o'tkazilishi kerak.

Ro'yxatdan o'tkazilmagan nodavlat notijorat tashkilotining ramzidan foydalanish taqiqlanadi.

Nodavlat notijorat tashkilotining vakolatxonasi va filiali o'z faoliyatida bosh nodavlat notijorat tashkilotining ramzidan foydalanadilar.

Nodavlat notijorat tashkiloti ramzining nizomi davlat tilida ishlab chiqiladi hamda unda ramz tasviri va tavsiflari, shuningdek, ramzdan bayroqlar, vimpellar, emblemalar va boshqa o'rinlarda foydalanish tartibi belgilanadi.

Ramzning nizomida nodavlat notijorat tashkiloti ramziga taalluqli, qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa qoidalar ham nazarda tutilishi mumkin".

REFERENCES

1. Ryabchikova A.S. Pravovoe regulirovanie sredstv individualizatsii nekommercheskikh organizatsiy [Legal regulation of means of individualization of non-profit organizations]. Dissertation (PhD). Moscow, 2013, p. 9. Available at: <https://docs.yandex.ru/docs/view?tm=1759126691&tld=ru&lang=ru&name=01006714935.pdf&text>
2. Kondrat'eva D.A., Fofanova A.Yu. Nekommercheskie organizatsii (NKO) i ikh rol' v reshenii sotsial'nykh problem [Non-profit organizations (NPOs) i ix role and solution of social problems]. *Symbol of Science*, 2016, vol. 2(2), pp. 162–164.
3. Response letter of the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan. 2023, no. 9-05-09.
4. Kalinina O.E. Tendentsii reorganizatsii i likvidatsii nekommercheskikh partnerstv [Trends in the reorganization and liquidation of non-profit partnerships]. *Bulletin of Arbitration Practice*, 2013, vol. 2, pp. 5–10.

5. Mel'nikov A.A. Grazhdansko-pravovoe regulirovanie prekrasheniya deyatel'nosti yuridicheskikh lits [Civil law regulation of the termination of activities of legal entities]. Moscow, 1997.
6. Spektor E.I. Razvitie administrativnogo zakonodatel'stva o gosudarstvennoy registratsii [Development of administrative legislation on state registration]. *Journal of Russian Law*, 2002, vol. 7, pp. 36–47.
7. Guliev A. NGOs in Azerbaijani Legislation as Institutions. *Int'l J. Not-for-Profit L.*, 2011, p. 93.
8. Hadiwinata B.S. Securitizing poverty: the role of NGOs in the protection of human security in Indonesia. Presentation, Singapore, 2004.
9. Rayhert B. Vereins- und Verbandsrecht [Club and association law]. Legal regulation of the activities of unions and associations. 2016, pp. 716, 1140.
10. Sauter E., Schweyer G., Waldner W. Der eingetragene Verein [The registered association]. Munchen, CH Beck Publ., 2010.
11. Adam B. Rechnungslegung gemeinnütziger Organisationen. Eine empirische Untersuchung zu Merkmalen und Rechnungslegung gemeinnütziger Organisationen in Deutschland [Accounting for non profit organizations. An empirical study on the characteristics and accounting of non-profit organizations in Germany]. *ZögU Magazine for Public and Non-profit companies*, 2020, vol. 4, pp. 408–421.
12. Schultz C., Hoffmann S., Ferdinand M. Vertrauensbasierte Organisationen als Grundlage von erfolgreichen digitalen Plattformen für personennahe Dienstleistungen [Trust-based organizations as the basis of successful digital platforms for personal services]. *HMD Practice of Business Informatics*, 2020, pp. 1–16.
13. Freund S. Freiwilligenarbeit in Organisationen. Organisationsentwicklung in Freiwilligenorganisationen [Volunteer work in organizations. Organizational development in voluntary organizations]. Wiesbaden, 2020, pp. 5–29.
14. Schön A. Schuldrechtliche Gesellschaftervereinbarungen in der Gesellschaft mit beschränkter Haftung unter besonderer Berücksichtigung der Rechtsnachfolge [Partner agreements under the law of obligations in the limited liability company with special consideration of legal succession]. *Nomo's Publ.*, 2018, p. 925.
15. Fischer B. Der Bestimmtheitsgrundsatz im Personengesellschaftsrecht [The principle of certainty in partnership law]. *Bucerius Law School*, 2018.

**O'ZBEKISTON
QONUNCHILIGI TAHLILI**

ILMIY-TAHLILIY JURNAL
2025-YIL 3-SON

**ОБЗОР
ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА
УЗБЕКИСТАНА**

НАУЧНО-АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
2025 ГОД № 3

**UZBEKISTAN
LAW REVIEW**

SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL
2025 ISSUE 3

VOLUME 2 / ISSUE 3 / 2025

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.2.3.

ISSN 2181-8118

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.